

TARJIMADA UCHRAYDIGAN MURAKKABLIKLAR XUSUSIDA (Kinofilmlar tarjimasi misolida)

Tarjima insonning ma'naviy faoliyati sifatida qadim-qadim zamonlarga borib taqaladi. Hozirgi paytda, ya'ni XXI asrda tarjimachilik faoliyati turli ko'rinishlarda misli ko'rilmagan darajada keng yoyildi. Bunga, o'z navbatida, xalqaro aloqalarni jadal ravishda o'sib borayotgani ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Tarjima insoniyat taraqqiyotida, uning madaniy hayotida juda katta va muhim o'rin egallaydi. Aynan tarjima bir mamlakat yoki qit'a odamlarini boshqa mamlakat yoki qit'a odamlarining hayoti, turmush tarzi, madaniyati, urf-odati, tarixi, adabiyoti va ilm-fani bilan tanishtiradi. Tarjima ayrim millatlar madaniyati tarixida, qolaversa dunyo madaniyati tarixida muhim o'rin egallagan va hozirda ham egallab kelmoqda. Hozirgi davrga kelib XXI asrda – tarjima faoliyati turli ko'rinishlarda quloch yoydi. Bunga asosiy sabab, hozirgi davrdagi o'sib borayotgan xalqaro aloqalarning jadal ravishda birinchi o'ringa chiqqanligidadir. Hozirgi zamon tarjimashunosligida kinofilmlar tarjimasi eng dolzarb bo'lgan tarjima turlaridan biri hisoblanadi. Bu tarjima turi bo'yicha dunyoning ko'plab tarjimashunos olimlari bir qancha ilmiy ishlar, maqolalar va albatta tadqiqot ishlari yozib kelishgan va yozmoqdalar. Shulardan biri tarjimashunos olim G'. Salomovning "Tarjima nazariyasiga kirish" nomli o'quv qo'llanmasida kinofilmlar tarjimasi hamda "ovozli kino"ning yaratilishi haqidagi quyidagi nazariyalar o'rin olgan: "Kinoga ovozning kirib kelishi kinematografiyada inqilobiy ahamiyatga ega bo'lgan voqea edi. Ovozli kinoning texnikaviy tomoni dastlabki davrlarda qanchalik murakkab bo'lmasin, uning estetik jihati battar qiyinchilikka uchradi"¹. San'atshunos olim O. Kopadze o'zining nomzodlik dissertatsiyasida filmlarning "ovozli" bo'lganligi, jahon iqtisodiy jarayonining rivojlanishi hamda texnikaviy taraqqiyotning jadallashishi kino san'atiga qanchalik ta'sir qilgani haqida quyidagi

¹ Саломов Г. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 207.

fikrlarini bayon etgan: “1930 yilga kelib, jahon kinematografiyasida olamshumul ahamiyatga ega voqea yuz beradi. Jahon iqtisodiy jarayonining rivojlanishi, texnikaviy taraqqiyotning jadallashishiga olib keladi. Kino san’ati eng avvalambor, texnika bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, bu yangilanish jarayoni unga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Texnikaning yangi yutuqlaridan foydalangan amerikaliklar dastlabki ovozli filmlarni tomoshabinlarga havola etishadi. Tez orada Yevropa kinoteatrlari ham ovoz apparatlari bilan jihozlanib, texnika yutuqlaridan keng foydalanadilar. Xullas, kino san’ati ilk bor “gapira” boshlaydi”².

Hozirgi kunda fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Internet tarmoqlaridan juda ham ko‘plab ilmiy hamda boshqa turdagi ma’lumotlarni izlab topish imkoniyati mavjud. Bir qator kinematografist hamda kino tarjimonlari tomonidan bildirilgan, internet tarmog‘ida mavjud bo‘lgan quyidagi fikrlarda “ovozli kino”ning taraqqiyot bosqichlarini texnikaga bog‘lab shunday deydilar: “Ovozli kino – kinematografiyaning “ovozsiz kino”dan farqli o‘laroq tasvir bilan birgalikda nutq, musiqa va ovoz effektlari mavjud. Ilk mashhur ovozli filmning ommaviy namoyishi Parijda 1900-yili bo‘lib o‘tgan, ammo yigirma yildan keyingina ovozli tijorat filmlari muvaffaqiyat qozona boshladi. Ilk ovozli filmlar ishlab chiqarish texnologiyasining asosiy muammosi bu – tasvir va ovozni sinxronlashtirish hamda filmda ovozning pastligi va fonogrammaning qoniqarsizligi bo‘lgan. Kinematografiya vujudga kelgan paytda, allaqachon ovozni yozish texnologiyasi – fonograf mavjud bo‘lgan. Fonografni kinoapparat bilan birlashtirishning ilk urinishlarini 1894 yili kinetofonografning ixtirochisi Tomas Edison tomonidan amalga oshirilgan. Film yaratuvchilarining aksariyati dastlab, “ovozli kino” g‘oyasiga salbiy munosabatda qaraganlar. Chunki ular tilning universalligi va bu xalqaro auditoriyaning yo‘qolishiga olib keladi deb hisoblashgan. Amerikalik kinoprodysserlar ovozli kinoni kirib kelishi bilan kinokartinalarning eksporti to‘xtab qolishidan havotirga tushganlar. Chunki bu Gollivudning daromadini keskin qisqarishiga olib kelishidan qo‘rqishgan.

² Копадзе О. Турк бадийи киносининг ривожланиш йўллари: с.ф.н. ... дисс.– Тошкент., 2002. – Б. 38.

Sinxronlashtirish muammosini 1922-yilda nemislarning “Triergon” texnologiyasi orqali hal etilgan. Ammo, ovozning sifati hali ham qoniqarli emasdi. Ilk sinxronlashtirilgan to‘liqmetrajli film AQSHda 1927-yilda “The jazz singer” ya’ni “Jaz qo‘shiqchisi” nomli musiqiy filmi bo‘lgan, ovozi gramplastinkada yozilgan.³

Keyinchalik esa filmlar tarjimonlar tomonidan bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilina boshlanadi. Ushbu tarjimalar orqali turli xalqlar o‘z ona tillarida boshqa millatlarning filmlarini ham ko‘rish, ham eshitish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu jarayon yurtimizga ham juda tez kirib keladi. O‘zbek kinematografistlari ham filmlarni tarjima qilishga kirishadilar. Fikrimizning isboti sifatida G‘. Salomovning “Tarjima nazariyasiga kirish” nomli o‘quv qo‘llanmasidagi quyidagi fikrlari bilan tasdiqlasak bo‘ladi: “1938 yildan boshlab o‘zbek kinematografistlari ham filmlarni o‘g‘irishga kirishdilar. Shu yili o‘zbek tiliga birinchi bo‘lib Kiyev kinostudiyasining “Boy kelin” filmi tarjima qilindi. Bu film o‘g‘irmasining rejissori A. Sh. Sharopov edi. Unga tajribali kinematografist A. B. Konstantinov zarur maslahatlarni berib turdi”⁴. E. Ochilov o‘zining “Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug‘ati” da kinofilmlar tarjimalarining qanday jarayon ekanligi, kinofilmlar tarjimasi jarayonidagi muarakkabliklar to‘g‘risida quyidagilarni aytib o‘tadi: “Kino tarjimasi – kinofilmlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘g‘irish ijodiy va texnikaviy jarayondir. O‘g‘irish ishida kinostudiyaning montaj, ovoz, filmni qayta ishlash hamda murakkab syomka tsexlari faoliyat ko‘rsatadi. O‘girma (dublyaj) guruhi tashkil etiladi. Bu guruhga rejissor, ovoz operatori va montajchilar kiradi. O‘g‘irilayotgan filmga ovoz beradigan aktyorlar, tarjimon va joylovchi (ukladchik)lar shu guruhda ish olib boradilar. Kinostudiyaning ishlab chiqarish bo‘limi filmni tarjima qilish uchun o‘girma guruhi (dublyaj guruhi)ni tashkil qiladi. Ssenariy bo‘limi o‘girma guruhga muharrir tayinlaydi. Dublyaj qilingan filmda tasvir bilan musiqa aynan saqlanadi-yu, matn bilan shu matnni gapirayotgan aktyorlarning ovozi almashadi. Yangi matn filmning maqsadi bilan hamohang ravishda asl nusxaning barcha

³ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Звуковое_кино.

⁴ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 207.

ma'nolarini, nutqning obrazlilik, personajlar talqini, so'z o'yinlari, hazil-mutoyiba, qochirma, maqollar va boshqalarni, bo'lak har qanday adabiy tarjimada bo'lgani kabi, aynan saqlashi ustiga, buni ekranda o'ynayotgan aktyorlarning og'iz-lab harakatlari, pauzalar, imo-ishoralar, qosh-ko'z va yuz harakatlariga mos ravishda aks ettiradi. Asl nusxadagi gaplar shaxs xarakteriga, so'z o'yini, hazillar aktyorlarda labning ochilib-yumilishiga, pauza va mimikalari ekrandagiga mos tushmog'i darkor. Tarjima qilingan matnda, avvalgidek, so'z o'zining vazniga qoyilmaqom kelishi lozim. Tarjima qanchalik aniq bo'lmasin, tasvir vazniga to'g'ri kelmasa, chunonchi, aktyor so'zlarini qanchalik tez aytgani bilan unga ulgurolmasa, tarjima sifatsiz bo'lib chiqadi. Ba'zi hollarda ekrandagi holatga nisbatan so'z uzun kelsa, dublyajda qatnashadigan aktyorlar, rejissorning mahorati bilan "to'ldirilishi" mumkin. Ammo yaxshi tarjima qilinmagan matn bilan filmni durust o'girib bo'lmaydi. Dublyaj qilingan film, boshqa tarjima qilingan asarlar kabi, o'zining badiiy saviyasini, maqsadini, milliy xususiyatini saqlab qolishi kerak. Ba'zi bir tarjimonlar o'zlari yolg'iz, tasvirdan "tashqarida" tarjima qiladilar. Bunday hol o'girma sifatining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun tarjimon matn joylovi bilan baqamti ishlasa, ish ancha yengil ko'chadi. Tarjimon bu vaqtda faqat tasvirning badiiy tomoniga ahamiyat bersa, matn joylovchi aktyorlik mahoratiga diqqatni qaratadi. Har bir tarjimon o'ziga xos usulda tarjima qiladi. O'girilgan matnda so'z yetishmasa, haligi, ha, anavi, mana, e, bilasizmi, aytganday kabi tamg'a so'zlar "qistiriladi". Dublyaj vaqtida gapirayotgan aktyorning og'zi yoki uni o'zi butunlay ko'rinmasa, "hajm erkinligi" tug'ilishi mumkin. Tarjimon shu fursat ichida so'z tanlashda o'zini birmuncha erkinroq sezadi. Filmdan "tashqarida" berilgan diktorgaplarini o'girish ham qulaylik beradi. Joylama (ukladka)dan keyin yaxshi tarjimalarning 45-50 foizi saqlanib qoladi, qolgan qismi ko'pincha o'zgarib ketadi. Bo'sh tarjima qilingan ishdan esa nari borganda 5-10 foizi aks etadi, xolos"⁵.

Kinoni tarjima qilish murakkab bo'lgan san'at turlaridan biri ekanligi haqida aytib o'tdik. Tarjimon film tarjimasi chog'ida film qahramoni ruhiy vaziyatiga mos

⁵ Очилов Э. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент:ТДШИ, 2014. – Б. 48-49.

keldiydigan biror soʻzni qoʻshib qoʻysa, yoki notoʻgʻri tarjima qilsa, bu film tarjima sifatiga putur yetkazmay qolmaydi. Gʻ. Salomov oʻzining “Tarjima nazariyasiga kirish” nomli oʻquv qoʻllanmasida ommaviy sanʼat turlaridan boʻlmish kino haqida shunday deydi: “Film qisqa vaqt (90-100 minut) orasida murakkab insoniy xarakterlarni yaratmogʻi darkor. Personajning ruhiy vaziyatiga nomuqobil keladigan har qanday, hatto eng mayda sohtakorlik, har qanday uslubiy yoki maʼnoviy xato badiiy haqiqatni jiddiy buzishi, film yuzaga keltirgan butun haqqoniy taassurotni chippakka chiqarishi mumkin. Ommaviy sanʼat turlaridan boʻlgan kinoning oʻziga xos xususiyatlaridan biri shunda”⁶. Dublyaj chogʻida tarjimon, muharrir va joylovchi (ukladchik) barchasi bir guruh boʻlib, shu jarayonning boshidan ohirigacha birga harakat qilsalar, joylama chogʻida baʼzi soʻzlarni olib tashlashga toʻgʻri kelmaydi. Tarjimashunos olim Gʻ. Salomovning ushbu nazariyalari bilan fikrimizni tasdiqlasak boʻladi: “Oʻgirma (dublyaj) muharriri ekran matnini sahnadan tashqarida koʻradi. Lekin kino oʻgirmasi – dublyajning oʻziga xos tomoni shundaki, muharrir did va topqirlik bilan tavsiya etgan soʻzlarning qay birini olish-olmaslik faqat ekran bilan yuzma-yuz kelgandagina maʼlum boʻladi. Masalan, “хитрец” (mugʻambir) soʻzini – “лицемер” (munofiq) bilan almashtirish uchun butun jumlani buzib, boshqatdan tuzish talab etiladi. (Chunki artikulyatsiyasiga koʻra, bu soʻzlarni almashtirib boʻlmaydi, mana, aytaylik, “maksimum” va “minimum” soʻzlari talaffuz vaqtida lablarning holatiga koʻra bir-biriga juda mos tushadi). Oʻgirmada birgina soʻzni oʻzgartirish bundan keyingi luqmalarda boshqa bir nechta soʻzlarni oʻzgartirishga sabab boʻladi. Natijada boshqa bir qancha lavhalarga ham “yamoq” qoʻyib chiqishga toʻgʻri keladi”⁷.

Darhaqiqat, agar ogʻizning ochilib yopilishi yaʼni artikulyatsiyani hisobga oladigan boʻlsak, joylama paytida baʼzan talaffuziga koʻra uzun yoki qisqa termin yoki soʻzlar biroz noqulaychiliklar tugʻdirishi mumkin va agarda artikulyatsiyaga mos termin yoki soʻz mos tanlanmasa, bu albatta tarjima sifatiga putur yetkazishi

⁶ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 209.

⁷ Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 210.

mumkin. Tarjimashunos olim G'. Salomov bildirib o'tgan quyidagi fikrlar juda o'rinlidir: " O'girilayotgan filmlarda ilmiy, texnikaviy, harbiy va boshqa maxsus terminologiya uchrasa, konsultantlarga murojaat qilinadi. Lekin ular tavsiya etgan istiloh (termin)lar kerakli joyga mos kelmay qolishi mumkin. Shu sababdan, ko'pincha konsultant ham kino mutaxassislari bilan birga ekran qarshisida o'tirishga majbur bo'ladi"⁸.

Internet tarmoqlaridagi ba'zi ma'lumotlarda dunyo tarjimashunos olimlari joylamada ba'zi so'zlar aktyorlarning artikulyatsiyasiga moslashtiriladi va shu sababdan ba'zi so'z yo gaplar ham almashtirilishi mumkin deya ta'kidlashadi: "Joylama jarayonida kinofilm tarjimonining tarjima matnini aktyorlar artikulyatsiyasiga moslashtirish uchun ma'nosi yaqin bo'lgan so'zlar va hatto gaplar bilan almashtirish mumkin. Dublyajning sifatli joylamasida tomoshabinga film aktyori huddi tarjima tilida gapirayotganday tuyuladi"⁹.

Dunyoda tillar xilma-xil, tabiiyki, ularning grammatik qurilishlari ham turlicha ko'rinishlarga ega bo'ladi. Shunday ekan, tarjima jarayonida gaplar tarjimasi jarayonida ba'zi so'z yoki gaplar ba'zi o'zgarishlarga uchraydi. Ammo shunda ham asosiy vazifa ma'noni adekvat yetkazib berishdir. Firkimizning isboti tariqasida rossiyalik tarjimashunos M. Snetkovaning maqolasidagi ushbu jumlar bilan tasdiqlamoqchimiz: "Badiiy filmlarni tarjima qilishda ma'noni adekvat tarzda yetkazib berish va g'oyani saqlab qolish juda muhimdir"¹⁰.

Kinofilmlar tarjimasidagi murakkabliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tillarning turli-tumanligi va albatta ularning grammatik jihatdan har xilligi;
- dunyo tillarining ko'plab sheva va lahjalarga ega ekanligi va kinofilmlarda aksar hollarda personajlarning turli sheva va lahjalarda muloqot qilishlari;

⁸ Kўрсатилган манба. 210- бет.

⁹ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Укладчик_текста.

¹⁰ Снеткова М. С. Киноперевод как особый вид художественного перевода (на материале двух русских переводов к/ф П. Альмодовара «Женщины на грани нервного срыва»). Московский государственный университет им. М. В. Ломоносова. – Москва, 2011.

- milliy kolorit va realiyalarni tarjimada ularning asl holiga putur yetkazmasdan, ammo teletomoshabinlarga tushunarli tarzda tarjima qilish;
- film originali bilan tarjima dialoglari vaqtlarining davomiyligining bir xilligining ta'minlanishi;
- tillarda ovoz tempining turli-tumanligi;
- kinofilm tarjimalarida vulgarizmlarni berish muammosi;

Kino-video tarjimalarining 4 ta asosiy turi mavjud:

- 1) dublyaj
- 2) subtitrli tarjima
- 3) sinxron
- 4) kadr orti tarjimasi¹¹

Endi ushbu kino-video tarjimalarining qanday jarayon ekanligini aniqlab olsak:

Dublyaj bu – ovozlashtirishning bir turi hisoblanib, kinofilm fonogrammasini boshqa tilda yaratish bo‘lib, uning ma’naviy tuzilishi filmning asl (original) ovozinining tarjimasiga mos tushadi. Dublyajda asl (original) fonogramma yangisi bilan butunlay almashtirilib, unda nafaqat nutqning uzunligi, balki aktyorlarning artikulyatsiyasi ham imkon qadar yangi matn bilan moslashtiriladi.¹²

Subtitr yordamidagi tarjima bu – personajlar nutqi matn sifatida tarjima tilida ekranning pastki qismida yoziladi. Ushbu tarjima turi bilan tarjima qilingan filmlar xalqaro kinofestivallarda namoyish etiladi va raqamli tasmalarda bir vaqtning o‘zida bir necha tillarga tarjima qilinib sotiladi.¹³

Kadr orti tarjimasi bu – (ingliz tilidan olingan bo‘lib, voice-over ya’ni so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “gap ustidan”) ovozlashtirishning bir turi hisoblanib, filmni qo‘shimcha fonogrammasini boshqa tilda yaratishdir. Bu tarjima turida tomoshabin tarjima bilan birgalikda tasvirning original tovushini ham eshitib turadi. Kadr orti tarjimasi bir kishi tomonidan ovozlashtirilishi mumkin (bu odatda

¹¹ Там же.

¹² <https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Дублирование>.

¹³ Косицын И. В. Особенности перевода кинофильмов с помощью субтитров на примере кинофильма С. Кубрика “Eyes wide shut” («С широко закрытыми глазами»). Дипломная работа. – Челябинск, 2005. – С. 11-12.

filmning sifatsiz nusxalarida yoki hujjatli filmlar) yoki butun boshli professional aktyorlar jamoasi (ikki yoki undan ortiq) tomonidan ovozlashtirilishi mumkin. Tarjimaning bu turi ko‘proq oynai jahon kanallarida yoki kinoteatrlarda namoyish etilmaydigan filmlarni ovozlashtirishda ko‘proq ishlatiladi, chunki ular dublyajdan ancha arzon va dublyajga qaraganda qisqa vaqt orasida ovozlashtirish mumkin.¹⁴

Kinofilmlar bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilina boshlanganidan beri kinofilmlar tarjimasidagi uchraydigan qiyinchiliklar tarjimonlarni biroz qiynab keladi. Chunki, kinofilmlar tarjimasida bevosita ekranda jonli harakat qilayotgan aktyorlarning har bir og‘zidan chiqayotgan gapini tarjimon tarjima qilmog‘i lozim va bu tarjima jarayonida parallel ravishda ana o‘sha film qahramonlarining dialoglarini tarjima qilishda ularning harakatlari va ekrandagi holatiga mos ravishda tarjima yaratilmog‘i lozim. Aytaylik, tarjima ham bo‘ldi deylik, ammo tarjimadagi so‘zlarni dublyaj aktyorlari film qahramonlarining og‘iz-lab harakatlariga to‘liq mos tushirmog‘i darkor. Mana shu jarayonda joylovchi dialoglarni joylab chiqsa-yu, ammo ba‘zan tarjimada o‘zbek tilidagi so‘z tarjima tilida qisqaroq so‘zni tashkil qilsa, joylovchi o‘sha so‘zni olib tashlaydi va tarjimon ming mashaqqat ila yana o‘sha so‘zning sinonimik qatorlaridan film qahramonlari artikulyatsiyasiga mos so‘zni qidirib topishiga to‘g‘ri keladi. Og‘iz-lab artikulyatsiyasi filmning sifatli chiqishini ta‘minlaydigan tomoni va shuning uchun ham bu narsaga e‘tiborni qaratish lozim. Sifatli tarjima chiqishi uchun tarjimon bilan birgalikda albatta joylovchi, muharrir va ehtiyoj sezilganda aynan biror terminologiya turi mutaxassisi birga bir jamoa bo‘lib hamnafaslikda bir film ustida ishlash lozim.

Ovozli filmlarning yaratilganidan buyon turli xalqlar filmlarini ko‘plab mohir tarjimonlar turli tillarga tarjima qilib kelishmoqda. Albatta tarjimaning barcha turida bo‘lgani kabi, kinofilmlar tarjimasining ham o‘z murakkabliklari bor. Ayniqsa, kinofilmlar tarjimasini birgina tarjimon orqali amalga oshirilmaydi. Tarjimon bilan yelkama-yelka turib dublyaj guruhidagilar, ya‘ni rejissor, ovoz operatori, montajchilar, filmga ovoz beradigan aktyorlar hamda joylovchi (ukladchik) barchasi ushbu mas‘uliyatli jarayonning ishtirokchilari bo‘lishadi.

¹⁴ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Закадровый_перевод.

Hamnafaslikda ish olib borib, keng omma uchun sifatli film tarjimasini tayyor holga keltirishadi. Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, kinofilm tarjimalarining turlariga qarab tarjimalar sifati ham turlicha bo‘lar ekan. Eng sifatli kinofilm tarjimasi bu – albatta dublyajdir. Sababi, dublyaj qilingan har bir filmni bimalol katta kinozallarda namoyish qilsa bo‘ladi u barcha talablarga javob beradigan sifatli tarjima hisoblanadi.